Non jiydaning bioekologik xususiyatlari

Aytimov I.A. q.x.f.f.d. (PhD), dotsent · **Abdibaev T.N.** magistr

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

DOI 10.66073/ReFocus-Conf/1610151

Iqtibos uchun: Aytimov I.A., Abdibaev T.N. Non jiydaning bioekologik xususiyatlari // Orolbo‘yi hududida suvdan foydalanish samaradorligi va sho‘rlanishning qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi hamda aholi hayot faoliyatiga ta’sirini monitoring va nazorat qilish uchun iqlimga chidamli innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Nukus, 2026. – B. 569–570. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1610151

Annotatsiya. Ushbu jiyda turlari, birinchisi kamroq, ikkinchisi ko‘proq darajada xalq seleksiyasi obyekti sifatida tabiiy jiydazorlardan doimiy ravishda yirik mevali shakllarini tanlab olish va yangi mahsuldor shakllar va navlar yaratish imkonini bergan. Uzoq o‘tmishlarda xalqimiz tomonidan turli yo‘llar bilan yaratilgan va madaniylashtirilgan yirik mevali jiyda shakllari «Non jiyda» nomi bilan mashhur bo‘lib, aholi tomonidan qimmatli mevali daraxt sifatida ko‘plab o‘stirila boshlangan.

Abstract. These types of figs, the first to a lesser extent, the second to a greater extent, have been the object of folk selection, which has allowed us to constantly select large-fruited forms from natural fig plantations and create new productive forms and varieties. In the distant past, large-fruited fig forms, created and cultivated by our people in various ways, became known as “Bread figs” and began to be widely cultivated by the population as valuable fruit trees.

Аннотация. Эти виды инжира, первый в меньшей степени, второй в большей, были объектом народной селекции, что позволило нам постоянно отбирать крупноплодные формы из естественных инжирных плантаций и создавать новые продуктивные формы и сорта. В далеком прошлом крупноплодные формы инжира, созданные и культивируемые нашими людьми различными способами, стали известны как «хлебный инжир» и начали широко культивироваться населением как ценные плодовые деревья.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat, dorivorlik, meliorativ va manzarali, qimmatli mevali daraxt.

Xalqimiz hayotida asrlar osha muhim o‘rin egallab kelayotgan o‘simliklar orasida jiyda alohida o‘rin tutadi. Bu oziq-ovqat, dorivorlik, eroziyaga qarshi meliorativ va manzarali xususiyatlarga ega juda qimmatli va foydali o‘simliklar sirasiga kiradi. Markaziy Osiyo ikkita tabiiy tarqalgan qimmatli jiyda turining vatanidir: bular ingichka bargli jiyda yoki qush jiyda (Лох узколистный-Elaeagnus angustifolia) va sharq jiydasi (Лох восточный Elaeagnus orientalis) bo‘lib, ular turli ekologik sharoitlarga yaxshi moslashgan va O‘zbekistonning deyarli barcha viloyatlarida o‘sadi. Ushbu jiyda turlari, birinchisi kamroq, ikkinchisi ko‘proq darajada xalq seleksiyasi obyekti sifatida tabiiy jiydazorlardan doimiy ravishda yirik mevali shakllarini tanlab olish va yangi mahsuldor shakllar va navlar yaratish imkonini bergan. Uzoq o‘tmishlarda xalqimiz tomonidan turli yo‘llar bilan yaratilgan va madaniylashtirilgan yirik mevali jiyda shakllari «Non jiyda» nomi bilan mashhur bo‘lib, aholi tomonidan qimmatli mevali daraxt sifatida ko‘plab o‘stirila boshlangan. Non jiydaning yirik mevali shakllari tarkibida qand moddasi ko‘pligi (60 % gacha) va yuqori iste’mollilik xususiyatlariga ega ekanligidan mevalari qish-bahor mavsumida quritilgan holda iste’mol qilingan va u qand o‘rnini bosgan.

Madaniylashtirilgan non jiyda shakllari doimiy ravishda yaxshilanib borgan va sug‘orma dehqonchilik madaniyati yuqori bo‘lgan hududlarda tarqalgan va aholi tomonidan ko‘plab o‘stirila boshlangan. Ayni vaqtda nafaqat respublikamizda, balki jahonda xalq seleksiyasi yo‘li bilan yetishtirilgan barcha mevalarga, shu jumladan non jiyda navlariga qiziqish ortib bormoqda. Xalq seleksiyasi juda mahsuldordir, u mana necha ming yillarki tabiatdan eng sara mevali shakllarni tanlab olib, o‘z faoliyatida ongli ravishda foydalanib kelgan. Keyinchalik insonning o‘simliklar

haqidagi bilimlari doirasi tobora kengayib bordi va u faol seleksiya bilan shug‘ullana boshladi. Natijada chatishtirish usuli bilan olingan duragaylarni tarbiyalab nav darajasiga yetkazishga harakat qilingan va ko‘p hollarda bu ish yaxshi natijalar bergan. Xalq seleksiyasi tomonidan yaratilgan meva navlariga, ularning yovvoyi ajdodlariga bo‘lgan qiziqish nafaqat respublikamizda, balki jahonda ham ortmoqda.

Xuddi shunga o‘xshash mevali o‘simliklar turlarining xalq seleksiyasi yo‘li bilan yaratilgan mahalliy aholi qo‘lidagi eng sara shakllarini hamda ularning yovvoyi istiqbolli ajdodlarini topib, ilmiy ahamiyatga molik kolleksiyasini (genofondini) barpo etish ishlari respublikamizda ham allaqachonlar boshlab yuborilgan. Ushbu tanlangan mavzuning ham asosiy maqsadi — Uzun o‘rmon xo‘jaligi sharoitida non jiydani vegetativ ko‘paytirish. Tarixdan ma’lumki, ajdodlarimiz juda qadimdan birinchi navbatda mahalliy sharoitlarda tarqalgan yovvoyi jiydalardan foydalanganlar, uning iste’mol uchun mevalari quritilgan. Vaqt o‘tishi bilan tabiatdan insonning o‘sib borayotgan talabiga javob bera oladigan seret, shirin, yirik mevali shakllari saralanib hovlilarda, tomorqalarda ekila boshlangan, ya’ni jiyda madaniylashtirilgan. Shu asnoda asta-sekin sara jiyda shakllari va navlari yaratilgan, madaniy sharoitlarda ular yanada qayta-qayta saralanib borgan. Natijada xo‘jalik nuqtai nazaridan qimmatli belgi va sifatlarga ega bo‘lganlari saqlab qolingan, ko‘paytirilgan va xalq orasida ommalashtirilgan.

Shu sababli non jiydaning qimmatli belgi va sifatlarga ega shakllarini o‘rmon xo‘jaliklarida ko‘paytirishni muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga molik ish hisoblayman. Jiyda o‘simligi o‘rmon melioratsiyasida juda qadrlanadi, ayniqsa ingichka bargli jiyda, juda plastik o‘simlik bo‘lib, turli ekologik sharoitlarda tabiiy tarqalgan. Tog‘larda 1000 metrdan balandlikkacha ko‘tarilsa, sho‘rxok, yer osti sizot suvlari yer yuzasiga yaqin yerlarda ham bemalol o‘sadi. Suv havzalari, irrigatsion kanallar, kollektorlar qirg‘oqlarini mustahkamlashda, jarliklar, ko‘chki joylarida ham tuproqni mustahkamlovchi eroziyaga qarshi jiydazorlar barpo etish maqsadga muvofiqdir. Unumsiz tuproqlarda ham jiyda bemalol o‘sib hosil beradi. Chunki uning ildiz sistemasida azotni o‘zlashtiruvchi tuganak bakteriyalar (aktinomitsetlar) mavjud bo‘lib, ular tuproq unumdorligini oshiradi. Bir so‘z bilan aytganda, jiyda turli og‘ir tuproq sharoitlariga oson moslashadi. Qishloq xo‘jaligi tizimidan chiqarilgan va meliorativ holati yomonlashgan yerlarda yirik mevali jiydazorlar barpo etish maqsadga muvofiq ishdir. Jiydaning turli geografik hududlarda keng tarqalganligi va ekilayotganligi ham uning chidamli tur ekanligini ko‘rsatadi. Rossiya sharoitlarida u sovuqqa chidamliligi tufayli (-30^{0}C gacha sovuqlarga bardosh beradi) ko‘plab o‘stirilmoqda, chunki u nafaqat shirin meva beribgina qolmay, tuproqni (60-70 kg/ga) azot bilan boyitadi. Shu sababli uning nomi Rossiya yoki shimol xurmosi nomiga sazovor bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Azimov İ. Razmnojenie loxa steblevыmi cherenkami. Trudы SredazNİİLX. Vыp 14 Tashkent 1975 S 139-142.
2. Azimov İ. Krupnoplodnыe formы loxa (djida) Uzbekistana i sposobы ix vegetativnogo razmnojeniya Avtoreferat diss na sois.uch. st. k. s. x nauk. Tashkent 1967 17 str.
3. Allayarov İ. Rastitelьnostь Xorezmskogo oazisa Nauchnыe trudы TashGU vыp 204 Tashkent İz-vo FAN UzSSR 1962
4. Allazarova U Butkov A Ya Xamidov G X Gornыe listvennыe lesa i kustarniki mezofilnogo sklada – Therodendra Rastitelьnыy pokrov Uzbekistana i puti ego racionalьnogo ispolьzovaniya. Tom IV Tashkent İzd-vo Fan 1984 S 3-85.
5. Berdiev E. Turdiev S. Turdiev R Non jiyda O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi 2009 y № 7 19 bet.